

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**AREAL ANALYSIS OF MODERN UZBEK ETHNOTOPONYMS FORMED ON THE BASIS OF ETHNONYMS MENTIONED IN “SHAJARAYI TURK”****Kamola Abduvaliyeva***PhD Candidate**Tashkent State University of Uzbek Language and Literature**Email: kamola.z@mail.ru**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: ethnotoponym, ethnonym, toponymy, areal linguistics, Shajarayi turk, ethnic history, ethnogenesis, ethnic names, geographical names, historical layer, Uzbek people, tribal names, clan names.

Received: 23.10.25**Accepted:** 24.10.25**Published:** 25.10.25

Abstract: This article presents an areal analysis of ethnonyms-derived toponyms (ethnotoponyms) in the modern Uzbek language. During the research, the tribal and clan names mentioned in “Shajarayi turk” were examined in terms of their preservation as toponyms within the territory of present-day Uzbekistan, particularly in the Samarkand, Jizzakh, Surkhandarya, and Kashkadarya regions. The article scientifically highlights the role of historical-ethnic processes, migration, cultural interactions, and geographical factors in the formation of ethnotoponyms. Based on the areal linguistic approach, the territorial distribution, historical layers, and semantic changes of ethnonyms were identified. The results of the study serve as an important scientific source for a deeper understanding of the ethnic composition, ethnogenesis, and the formation of the toponymic system of the Uzbek people.

“SHAJARAYI TURK” ASARIDA QAYD ETILGAN ETNONIMLAR ASOSIDA SHAKLLANGAN HOZIRGI O‘ZBEK ETNOTOPONIMLARINING AREAL TAHLILI**Kamola Abduvaliyeva***Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti**universiteti tayanch doktoranti**Email: kamola.z@mail.ru**Toshkent, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so‘zlar: etnotoponim, etnonim, toponimika, areal lingvistika, “Shajarayi turk”, o‘zbek tilidagi etnotoponimlarning areal tahlili

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi o‘zbek tilidagi etnotoponimlarning areal tahlili

etnik tarix, etnogenez, xalq nomlari, geografik nomlar, tarixiy qatlam, o'zbek xalqi, qabila nomlari, urug' nomlari.

yoritilgan. Tadqiqot davomida "Shajarayi turk" asarida keltirilgan urug' va qabila nomlarining bugungi O'zbekiston hududida, xususan, Samarqand, Jizzax, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida toponim shaklida saqlanib qolgan namunalarini tahlil qilindi. Maqolada etnotoponimlarning shakllanishida tarixiy-etnik jarayonlar, migratsiya, madaniy aloqalar va geografik omillarning roli ilmiy asosda yoritilgan. Areal lingvistika yondashuvi asosida etnonimlarning hududiy tarqalish chegaralari, tarixiy qatlamlari va semantik o'zgarishlari aniqlangan. Tadqiqot natijalari o'zbek xalqining etnik tarkibi, etnogenez jarayonlari va toponimik tizimining shakllanishini chuqurroq o'rganishda muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

АРЕАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ УЗБЕКСКИХ ЭТНОТОПОНИМОВ, ОБРАЗОВАННЫХ НА ОСНОВЕ ЭТНОНИМОВ, УПОМИНАЕМЫХ В "ШАЖАРАИ ТЮРК"

Камола Абдувалиева

Соискатель степени PhD

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы

Эл. почта: kamola.z@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: этнотопоним, этноним, топонимия, ареальная лингвистика, Шажарайи тюрк, этническая история, этногенез, этнические названия, географические названия, исторический слой, узбекский народ, племенные названия, родовые названия.

Аннотация: В данной статье представлен ареальный анализ топонимов, образованных от этнонимов (этнотопонимов), в современном узбекском языке. В ходе исследования были рассмотрены названия племён и родов, упомянутые в труде «Шажарайи тюрк», с точки зрения их сохранности в качестве топонимов на территории современного Узбекистана, в частности в Самаркандской, Джизакской, Сурхандарьинской и Кашкадарьинской областях. В статье научно освещается роль историко-этнических процессов, миграций, культурных взаимодействий и географических факторов в формировании этнотопонимов. На основе ареально-лингвистического подхода определены территориальное распространение, исторические слои и семантические изменения этнонимов. Результаты исследования служат важным научным источником для более глубокого

Kirish. Etnotoponimlarni tadqiq qilish jarayonida aniqlanishicha, hech bir xalq yoki etnos o‘z-o‘zidan, boshqa xalqlar bilan o‘zaro aloqaga kirishmasdan shakllanmagan. Har bir xalqning etnik tuzilmasi – uzoq tarixiy davrlar davomida turli urug‘ va qabilalarning ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy hamda siyosiy munosabatlari natijasida tarkib topgan murakkab jarayon mahsuli. Urug‘larning shakllanishida turli etnoslarning o‘zaro yaqinlashuvi, madaniy almashinuvi va hatto qorishib ketishi hal qiluvchi rol o‘ynagan. Bu fikrni filolog olim Abduhalim Ergashev quyidagi so‘zlari bilan yanada aniqroq ifodalaydi: “Har bir xalq etnik tarkibining murakkab ekanligi tan olingan taqdirdagina etnogenetik muammolarni ilmiy asosda hal qilish mumkin”.

Asosiy qism. Tarixiy manbalar va etnografik tadqiqotlardan ma’lumki, o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman, qoraqalpoq, uyg‘ur kabi xalqlar asrlar davomida O‘rta Osiyo hududlarida qo‘shni yashab kelganlar. Ular o‘rtasidagi doimiy ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar va o‘zaro aralash yashash jarayonlari natijasida bu xalqlarning etnik tarkibida o‘xshash yoki bir xil nomdagi urug‘ va qabilalar paydo bo‘lgan.

Shu jihatdan, “Shajarayi turk” asarida keltirilgan ko‘plab kichik urug‘ nomlari nafaqat o‘zbek xalqining, balki qo‘shni turkiy va forsiy tilli xalqlarning etnik tarkibida ham uchraydi. Bu holat O‘rta Osiyo xalqlari o‘rtasidagi tarixiy-etnik aloqalarning chuqurligini, ularning umumiy ildizlardan o‘rib chiqqanligini ko‘rsatadi.

Biroq tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, “Shajarayi turk” asarida qayd etilgan qabila va urug‘ nomlarining aksariyati hozirgi kunda faol ishlatilmaydi, ularning bir qismi esa tarixiy jarayonlar davomida unutilgan yoki boshqa nomlar bilan almashgan. Shunga qaramay, ba’zi urug‘ nomlari toponimik tizimda, ya’ni joy nomlari tarkibida saqlanib qolgan. Bunday etnotoponimlar bugungi kunda o‘tmishdagi etnik jarayonlar, xalq va urug‘lar o‘rtasidagi aloqalarning tirik guvohi sifatida katta ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Etnotoponimlarning hududiy tarqalishi masalasi o‘rganilganda, yurtimiz geografiyasida o‘ziga xos murakkabliklar va ko‘p qatlamlilik kuzatiladi. O‘zbekiston Respublikasi O‘rta Osiyoning markaziy qismida joylashgan bo‘lib, beshta davlat – Qozog‘iston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg‘iziston va Afg‘oniston bilan chegaradosh. Bu esa mamlakatimiz hududining qadimdan turli xalqlar bilan uzviy aloqada bo‘lib kelganini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, O‘zbekistonning qulay geografik joylashuvi, tabiiy resurslarga boyligi va tarixiy savdo yo‘llari chorrahasida, xususan, Buyuk Ipak yo‘li kesishgan hududda joylashgani uni qadimdan Sharq va G‘arb, Shimol va Janub o‘rtasidagi madaniy, iqtisodiy hamda etnik aloqalarning markaziga aylantirgan. Shu sababli yurtimiz hududida yashovchi turli xalqlar bir-biri

bilan uzluksiz aloqa oʻrnatgan, bu jarayon esa oʻz navbatida etnonimlar va etnotoponimlarning shakllanishi hamda rivojlanishiga kuchli taʼsir koʻrsatgan.

Etnonimlarning bunday rang-barangligi va dinamik rivojlanishiga bir qator ichki va tashqi omillar sabab boʻlgan. Jumladan, tarixiy voqealar, aholining migratsion jarayonlari, siyosiy tuzilmalar oʻzgarishi, iqtisodiy aloqalarning kengayishi hamda turli etnik guruhlarining oʻzaro aralashuvi natijasida yurtimizda murakkab etnik tarkib shakllangan. Shu bois, etnotoponimlarning viloyatlar boʻyicha tarqalishini oʻrganish jarayonida koʻp qatlamli tarixiy-geografik omillarni eʼtiborga olish zarur.

Etnotoponimlarni chuqur tahlil qilish nafaqat xalqlarning tarixiy taraqqiyoti, etnik shakllanish jarayonlari, ijtimoiy-maishiy hayoti haqida muhim maʼlumot beradi, balki tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham katta ilmiy ahamiyatga ega. Chunki etnotoponimlarni tadqiq etish orqali tilimizdagi atoqli otlar tizimining shakllanishi, tarixiy qatlamlari va semantik rivojlanishi haqida qimmatli xulosalar chiqarish mumkin.

“Shajarayi turk” asarida etnonimlarning kelib chiqishi haqida muallifning fikrlari berib oʻtilgan. Abulgʻozi Bahodirxon baʼzi etnonimlarning kelib chiqishini turli afsonalar orqali izohlaydi. Ushbu talqinlarning barchasi ishonarli deb boʻlmaydi. Asar ustida ilmiy izlanishlar olib borgan tilshunos olim Qayum Karimovning “Abulgʻoziyning tilga oid baʼzi qaydlari” nomli maqolasida qimmatli fikrlarini berib oʻtgan. Maqola yakunida quyidagicha xulosa qiladi: “Uning (Abulgʻoziyxonning) lingvistik va leksik-semantik qaydlarining barchasini ham toʻgʻri deb boʻlmaydi: baʼzi soxta etimologiyaga asoslangan, grammatik jihatdan notoʻgʻri izohlar ham mavjud. Lekin bulardan qatʼi nazar, bir qator tahlil va izohlari leksikologiya va morfologiya hamda fonetika tarixi uchun qimmatli material boʻla oladi”.

“Shajarayi turk” asarida keltirilgan etnonimlarni hududiy tamoyil asosida toʻplash va tahlil etishda areal lingvistikaning ilmiy yondashuvi muhim oʻrin tutadi. Ushbu yondashuv orqali etnotoponimlarning viloyatlar boʻyicha tarqalish areallari, ularning tarixiy qatlamlari va geografik chegaralari aniqlanadi.

Etnotoponimlar tadqiqiga oid qimmatli izlanishlar turkiy tilshunoslik doirasida ham keng miqyosda olib borilgan. Bu sohada oʻz nuqtayi nazarlari va ilmiy yondashuvlari bilan ajralib turgan olimlardan T. Jonuzoqov , A. Abdurahmonov , Y. Qoʻychiboyev , S. Otaniyozov , S. Amonjalov , I. Aymuradov , M. Mamedov , G.F. Sattorov , Geybullayev ning ilmiy merosini alohida eʼtirof etish lozim. Ularning tadqiqotlari turkiy tillarda ishlatilgan etnotoponimlarning fonetik, semantik va tarixiy qatlamlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Etnonimlarning bunday rang-barang va murakkab shaklda saqlanib qolishiga koʻchmanchi xalqlarning migratsiyasi, tarixiy siyosiy oʻzgarishlar, aholi almashinuvi hamda mahalliy va tashqi

etnik guruhlarning aralashuvi sabab bo'lgan. Shu jihatdan, respublikamiz hududida etnotoponimlarni o'rganish tarixiy-etnik jarayonlarni yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Jizzax viloyati da etnotoponimlarning tarqalishi. Jizzax viloyati hududida uchraydigan etnotoponimlar bu hududning qadimiy etnik tarkibini, turli urug' va qabilalarning tarixiy izlarini yaqqol namoyon etadi. Viloyat toponimikasida "Shajarayi turk" asarida uchraydigan ko'plab etnonimlar o'z aksini topgan bo'lib, ular xalqning qadimiy joylashuvi, ko'chish yo'nalishlari va etnik aralashuv jarayonlarini ifodalaydi.

Xususan, Qipchoq, Qipchoqsuv, Sariqipchoq kabi etnotoponimlar G'allaorol, Baxmal, Forish tumanlari hamda Jizzax shahrida keng tarqalgan. Ushbu nomlar o'z zamonida qipchoq urug'ining viloyat hududida keng yashaganidan dalolat beradi.

Boyovut nomi (ko'cha nomi sifatida) Sharof Rashidov tumanida uchrab, Boyovut urug'i vakillarining bu hududlarda istiqomat qilganini ko'rsatadi.

O'smatbarlos, Barlos, Bog'ibarlos toponimlari Sharof Rashidov, Zafarobod, G'allaorol va Baxmal tumanlarida qayd etilgan. Bu esa Barlos urug'ining Jizzax viloyati hududlarida keng tarqalganligini, hatto ayrim joy nomlarida ularning tarixiy izlari saqlanib qolganini ko'rsatadi.

Qiyot nomli ko'cha Sharof Rashidov tumanida mavjud bo'lib, u qadimiy qiyot urug'i nomi bilan bog'liq. Shuningdek, Do'rmon ko'chasi Zafarobod va G'allaorol tumanlarida uchraydi.

Nayman etnotoponimi Zarbdor, Zomin, Zafarobod, G'allaorol va Baxmal tumanlarida qayd etilgan bo'lib, bu urug'ning keng tarqalganligini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, Nukus ko'chasi Zarbdor tumanida, Sariqko'l va Sariqqo'rg'on ko'chalari esa Sharof Rashidov tumanida joylashgan.

Qo'ng'iro't ko'chasi Forish tumanida hamda Jizzax shahrida uchraydi. Bu toponimlar Qo'ng'iro't urug'ining izlarini ifodalaydi.

Umuman olganda, Jizzax viloyati toponimik tizimida etnotoponimlarning ko'pligi bu hududda turli urug' va qabilalarning tarixan bir-biri bilan yaqin aloqada bo'lganligini, ularning madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Shu bois, viloyatdagi etnotoponimlarni o'rganish o'zbek xalqining etnik shakllanish jarayonlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Samarqand viloyati da etnotoponimlarning tarqalishi. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, Samarqand viloyatining toponimik tizimida etnotoponimlar salmog'i yuqori. Viloyatda 2000 dan ortiq aholi punkti mavjud bo'lib, ulardan 20–45 foizi etnik kelib chiqishga ega nomlardir. Bu holat viloyat tarixan ko'p etnik mintaqaga bo'lganligini tasdiqlaydi. Samarqand viloyati toponimik tizimi o'zining boy tarixiy qatlamlari, qadimiy etnik jarayonlarning izlari va xalqning etnogenetik shakllanish jarayonlarini aks ettiruvchi etnotoponimlarga nihoyatda boydir. Viloyat hududida

“Shajarayi turk” asarida keltirilgan ko‘plab urug‘ va qabila nomlari toponim shaklida saqlanib qolgan bo‘lib, ular hududning etnik tarkibining qadimiy ildizlarga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Avvalo, Orlot toponimi Qo‘shrabot va Ishtixon tumanlarida uchraydi. Bu nom o‘z zamonida Orlot urug‘ining mazkur hududlarda yashaganligidan darak beradi.

Bahrin nomi va uning turli shakllari — Bahrinobod, Quyi Bahrin, Yuqori Bahrin, Bahrinsoy, Yangi Bahrin, Bahrinsaroy — Samarqand viloyatining deyarli barcha tumanlarida uchraydi. Bu nomlarning keng tarqalganligi Bahrin urug‘ining viloyat hududida qadimdan yashab, mahalliy aholi etnik tarkibiga singib ketganligini ko‘rsatadi.

Barlos, Yuqori Barlos, Quyi Barlos, Barlos Suvoriy kabi toponimlar ham viloyatning ko‘plab tumanlarida mavjud. Bu esa Amir Temur avlodiga mansub mashhur Barlos urug‘ining Samarqand viloyatidagi qadimiy ildizlarini yana bir bor tasdiqlaydi.

Do‘rmon, Do‘rmontepa, Do‘rmonsoy toponimlari Ishtixon, Jomboy, Pastdarg‘om, Toyloq va Urgut tumanlarida uchraydi. Bu toponimlar qadimiy Do‘rmon urug‘i nomi bilan bog‘liq bo‘lib, ularning nomlari ko‘pincha joy relyefi bilan (masalan, tepa, soy) birikib ishlatilgan.

Jaloyir toponimi Toyloq, Kattaqo‘rg‘on va Narpay tumanlarida qayd etilgan. Jaloyir urug‘i o‘rta asrlarda turkiy xalqlar tarkibida muhim o‘rin tutgan bo‘lib, ushbu nomlarning saqlanib qolganligi o‘sha tarixiy etnik qatlamlarning davomiyligini ko‘rsatadi.

Uyg‘ur va Damiuyg‘ur toponimlari Pastdarg‘om va Paxtachi tumanlarida uchraydi. Ular uyg‘ur urug‘ining bu hududlarda yashaganligiga ishora qiladi.

Qalmoq, Qalmoqlar, Qalmoqsoy, Qalmoqtepa kabi toponimlar Nurobod, Pastdarg‘om va Kattaqo‘rg‘on tumanlarida mavjud bo‘lib, ular tarixiy Qalmoq xalqi yoki qabilasining izlarini ifodalaydi.

Qatag‘on toponimi Ishtixon, Payariq, Toyloq va Urgut tumanlarida uchraydi. Bu nom o‘zining tarixiy ildizlari bilan “Shajarayi turk”da tilga olingan qadimiy qatag‘on urug‘i bilan bevosita bog‘liqdir.

Qiyot, Yangi Qiyot, Katta Qiyot kabi toponimlar esa viloyatning aksariyat tumanlarida mavjud bo‘lib, ular qadimiy qiyot urug‘i nomidan kelib chiqqan.

Shuningdek, Qiyqim toponimi Qo‘shrabot tumanida, Qang‘li va Qang‘liobod esa Jomboy tumanida uchraydi. Bu toponimlar o‘z nomini tarixiy turkiy qabilalar — Qiyqim va Qang‘li urug‘laridan olgan.

Umuman olganda, Samarqand viloyati hududida etnotoponimlarning bu qadar ko‘pligi, ularning xilma-xilligi va hududiy tarqalish darajasi xalqning uzoq asrlar davomida kechgan etnik, madaniy va tarixiy jarayonlarini aks ettiradi. Shu jihatdan bu viloyat O‘rta Osiyo xalqlarining etnik shakllanish tarixini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Qashqadaryo viloyatida etnotoponimlarning tarqalishi. Qashqadaryo viloyati toponimik tizimi o'zining etnik jihatdan boy va tarixiy ildizlarga ega nomlari bilan ajralib turadi. Bu hudud qadimdan turli turkiy va eroniy etnoslarning o'zaro aloqada bo'lgan, bir-biriga singishgan markazlaridan biri hisoblanadi. "Shajarayi turk" asarida tilga olingan ko'plab urug' va qabila nomlari Qashqadaryo viloyati toponimikasida etnotoponim sifatida hozirgacha saqlanib qolgan bo'lib, bu holat hududning qadimiy etnik qatlamlarini o'rganishda muhim manba vazifasini bajaradi.

Viloyatda Bahrin, Qutchi-Bahrin, Yangi Bahrin, Bahrinbayot kabi toponimlar Qamashi, Dehqonobod, Chiroqchi va G'uzor tumanlarida uchraydi. Bu nomlar Bahrin urug'ining keng hududlarda yashaganligi va vaqt o'tishi bilan turli joy nomlarida o'z aksini topganini ko'rsatadi.

Boyovut ko'chasi Koson tumanida mavjud bo'lib, u Boyovut urug'i nomi bilan bog'liq. Bu nom Qashqadaryoda ham tarixiy urug' nomining izlari saqlanib qolganini bildiradi.

Barlos toponimi viloyatning ko'pgina tumanlarida uchraydi. Barlos urug'i o'zbek xalqi etnik shakllanishida muhim o'rin tutganligi sababli, bu nom viloyat bo'ylab keng tarqalgan.

Do'rmon nomi Qamashi, Kasbi va Kitob tumanlarida qayd etilgan. Bu toponim qadimiy Do'rmon urug'ining nomidan kelib chiqqan bo'lib, ko'pincha mahalla yoki qishloq nomi sifatida ishlatiladi.

Jaloyir ko'chasi Chiroqchi tumanida uchraydi. Jaloyirlar tarixan turkiy xalqlarning yirik qabilalaridan biri bo'lgan va ularning nomi Qashqadaryoda ham toponim shaklida saqlanib qolgan.

Uyg'ur mahallasi Yakkabog' tumanida joylashgan bo'lib, bu nom uyg'ur etnosining qadimiy ildizlari bilan bog'liq.

Qalmoq, Qalmoq-Saroy, Eliqalmoq, Qalmoqbuloq, Qalmoqon kabi toponimlar G'uzor, Chiroqchi va Kitob tumanlarida keng tarqalgan. Bu nomlar qadimiy qalmoq urug'ining izlarini ko'rsatib, tarixiy etnik aloqalarning hududiy doirasini kengaytiradi.

Qatag'on shaharchasi Yakkabog' tumanida joylashgan bo'lib, u "Shajarayi turk"da tilga olingan qadimiy Qatag'on urug'i nomidan olingan.

Qiyot va Qizilqiyot toponimlari G'uzor hamda Chiroqchi tumanlarida uchraydi. Bu nomlar qadimiy qiyot urug'i bilan bog'liq bo'lib, ularning nomi bugungi kunda ham joy nomi sifatida saqlanib qolgan.

Qishliq va Qishliqsoy toponimlari Qamashi, Yakkabog' va Kitob tumanlarida uchraydi. Bu nomlar o'z zamonida qishloq turar-joy tipiga asoslangan etnotoponimik tizim shakllanganini bildiradi.

Xalach toponimi Shahrisabz tumanida mavjud bo'lib, u tarixiy Xalach urug'i yoki elatining nomi bilan bog'liq.

Mang'it va Mang'ityop toponimlari Chiroqchi, Qarshi, G'uzor va Qamashi tumanlarida qayd etilgan. Mang'it urug'i O'rta Osiyo xalqlarining siyosiy va ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutgan bo'lib, bu nomlar ularning tarixiy izlarini Qashqadaryo hududida ham saqlab qolganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Qashqadaryo viloyatidagi etnotoponimlar xalqimizning etnik tarixini, turli urug' va qabilalarning bu hududlarda qanday yashab, madaniy hamda ijtimoiy jihatdan bir-biriga ta'sir etganini o'rganishda muhim daliliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Surxondaryo viloyati da etnotoponimlarning tarqalishi. Surxondaryo viloyati toponimlari orasida etnonim asosli joy nomlari keng tarqalgan bo'lib, ular tarixiy qavm va urug' nomlari bilan bevosita bog'liqdir. Quyida viloyat hududida uchraydigan asosiy etnotoponimlar kengaytirilgan va tahrir qilingan shaklda keltiriladi:

Barlos – Sho'rchi, Oltinsoy, Sherobod va Sariosiyo tumanlarida uchraydi. Bu toponim XIV asrda yashagan Amir Temurning urug'i – barlos qavmining nomidan olingan bo'lib, hozirgi kunda ham mahalliy aholi orasida qadimiy urug' nomi sifatida saqlanib qolgan.

Jaloyir, Jaloyir qo'rg'oni – Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on va Sho'rchi tumanlarida uchraydi. Bu nomlar jaloyirlar qabilasi bilan bog'liq bo'lib, ular mo'g'ul davrida keng tarqalgan etnoslardan biri sanaladi. "Qo'rg'on" elementi bu yerlarning qadimiy mudofaa yoki qarorgoh sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

G'ariqalmoq (quruq o'zan) – Sariosiyo tumanida joylashgan bo'lib, bu nom "qalmoq" (qalmog') etnonimi bilan bog'liq. "G'ariqalmoq" shakli mahalliy talaffuzda saqlangan bo'lib, bu hududda qalmoq urug'i vakillarining istiqomat qilganidan dalolat beradi.

Qang'isoy – Bandixon tumanida uchraydi. "Qang'li" etnonimi bilan aloqador bo'lib, qadimda qang'li qabilalari O'rta Osiyoning janubiy hududlarida yashagan. "Soy" elementi joyning tabiiy-geografik xususiyatini ifodalaydi.

Mang'it – Sherobod tumanida mavjud bo'lib, bu nom O'rta Osiyoda mashhur mang'itlar qabilasi bilan bog'liq. XVIII asrda Buxoro amirligi taxtiga kelgan amirlar aynan shu urug' vakillari bo'lgan.

Nayman – Qiziriq tumanida uchraydi. "Nayman" qadimiy turkiy qabilalardan biri bo'lib, ularning nomi keyinchalik turli hududlarda, jumladan Surxondaryoda ham toponim sifatida saqlanib qolgan.

Nukus – Sherobod va Termiz tumanlarida uchraydi. Bu toponim qadimiy nukus (no'kis) qabilasi nomidan olingan bo'lib, Orolbo'yi va janubiy hududlarda ularning izlari uchraydi.

Qo'ng'irot – Angor, Termiz va Qumqo'rg'on tumanlarida tarqalgan. "Qo'ng'irot" nomi turkiy urug'lardan biri sifatida keng ma'lum bo'lib, bu qabila o'z davrida Movarounnahr va Xorazm hududlarida katta siyosiy rol o'ynagan.

Etnotoponimlarning viloyatlar bo'yicha tarqalishini o'rganishda areal lingvistika yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv orqali har bir etnonimning geografik tarqalish chegaralari, tarixiy qatlamlari va semantik xususiyatlari aniqlanadi.

Masalan, Samarqand va Jizzax viloyatlarida uchraydigan Nayman, Qatag'on, Qipchoq kabi toponimlar nafaqat til, balki etnik tarixning tirik guvohlari sifatida xizmat qiladi. Ularning areal xaritasini tuzish orqali etnik guruhlarining qadimiy joylashuvi va migratsiya yo'nalishlarini aniqlash mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Samarqand, Jizzax, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida uchraydigan etnonimlardan hosil bo'lgan toponimlar xalqimizning qadimiy etnik tarkibi, ko'chish yo'llari va madaniy aloqalarini yorituvchi muhim manbalardir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "Shajarayi turk" asarida keltirilgan ko'plab urug' va qabila nomlari bugungi kunda ham ushbu viloyatlar toponimikasida etnotoponim sifatida saqlanib qolgan.

Bu etnotoponimlar har bir hududning tarixiy-etnografik jarayonlari, turli etnik guruhlarining aralashuvi va madaniy aloqalarini aks ettiradi. Shunday qilib, mazkur viloyatlardagi etnotoponimlar o'zbek xalqining etnik shakllanish jarayonini o'rganishda muhim lingvistik va tarixiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ergashev A. Andijon viloyati etnotoponimlarining areal-onomastik tadqiqi. F.f.n. dissertatsiyasi. – Toshkent, 2012. – 28-b. – 133 b.
2. Histoire des Mogols et des Tatares par Aboul-Ghazi Behadour Khan, publiee, traduite et annotee par le Baron Desmaisons. I. Texte. St. Petersbourg, 1871.
3. Каримов Қ. Абулвотийнинг тилга оид баъзи қайдлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – № 2. – 1987. – Б. 57.
4. Джанузаков Т. Этюды о казахских этнонимах // Ономастика Средней Азии. 2. – Фрунзе: 1980. – Вып. 2. – С. 16-24.
5. Абдрахмонов А. Казакстан этнотопонимикаси. – Алма-Ата: Ғылым, 1975. – 214 с.
6. Койчубаев Е. Краткий толковый словарь топонимов Казахстана. – Алма-Ата: Казахстан, 1974. – 274 с.
7. Атаниязов С. А. Этнонимы в туркменском языке: Автореферат. Дис...д-ра филол. наук. – Ашхабад: 1990. – 44 с.
8. Алмонджолов С. Вопросы истории и диалектологии казахского языка, – Алма-Ата: Казахстан, 1959. – 452 с.
9. Аймуратов Д. Тюркские этнонимы. – Нукус: Каракалпакистан, 1968. – 236 с.
10. Маметов М. Халқ номлари – жой номларида. – Тошкент: Фан, 1981. – 46 б.

11. Ономастика Узбекистана. – Ташкент: Ўқитувчи, 1989. – 207 с.
12. Гейбуллаев Г. А. Топонимия Азербайджана. – Баку: Элм, 1986. – 190 с.